



ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” TAZKIRASIDA IMMOMIDDIN NASIMIY ZIKRI

*Oqilov Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati yo‘nalishi 3-kurs talabasi
E-mail: oqilovahrorjon@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada naqshbandiya tariqatining yetuk vakili mutasavvif Mir Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida hurufiylik tariqatining mashhur vakili Imomiddin Nasimiyning zikri haqida so‘z yuritiladi

Kalit so‘z: Tasavvuf, tariqatlar, naqshbandiya, hurufiylik, Alisher Navoiy, “Nasoyim ul-muhabbat” asari, Imomiddin Nasimi

Kirish

Alisher Navoiy chin ma’noda zalvorli va ibratli hayot yo‘lini bosib o‘tdi. U o‘zining uncha uzoq bo‘lmagan hayoti davomida ijodi, axloqiy o‘rnaklari bilan saxovatpeshalik va komillik prototipiga aylandi. Umrining asosiy qismini adabiyotga bag‘ishlagan ijodkor shu bilan birgalikda gumanizm, xalqparvarlik, saxiylik borasida ham ulkan va beqiyos xizmat qildi.

Alisher Navoiy faoliyatining qamrov xususiyati o‘ta keng va salmoqli bo‘ldi. U nafaqat o‘zining adabiyotdagi nazmiy va nasriy asarlari bilan, balki zamonasining yetuk tasavvuf shayxi sifatida ham nom qozongan kishilaridan hisoblanib zamondoshi va ustozи Abdurahmon Jomiy kabi alohida hurmat va ehtiromga sazovor bo‘ldi.

Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida o‘z doirasiga ya’ni tasavvufga daxldor shaxslarni zikr etish orqali o‘z davridagi va o‘zidan keyingi avlodga ham ibrat namunalarini ko‘rsatib berishga urindi.

Alisher Navoiy bu yo‘lda o‘zidan oldin boshlangan tazkirachilik janrini davom ettirdi. Shu yo‘nalishga xos asarlar yaratdi. Bularning ba’zilari, masalan, “Xamsat ul-mutahayyirin” asari kichik doiradagi shayxlar zikriga qaratilgan bo‘lsa, “Nasoyim ul-Muhabbat” singari asari bilan umumiy tasavvuf jamoasidagi mashhur shayxlarning hayoti va ijodi, ularning kasbiy va tasavvufiy jihatlariga to‘xtalib, ular haqida ba’zi o‘rinlarda o‘z fikrlarini ilova qilib o‘tdi.

Navoiy tariqat masalasida nafaqat naqshbandiylikni e’tirof etdi, shuning bilan birgalikda boshqa tasavvuf shayxlarining ham hurmatini joyiga qo‘yishni istadi. Shu bilan birgalikda ularni ustoz darajasiga ko‘tardi. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid “Tarixi muluki Ajam”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va “hukamo”,



“Vaqfiya”¹. Masalan, birgina “Nasoyim ul-muhabbat” ya’ni “Muhabbat shabadalari” tazkirasida Alisher Navoiy yassaviya tariqati vakili 611-raqamda Ahmad Yassaviy, 732-raqamda hurufiylik sulukiga mansub Nasimi, 472-raqamda kubroviya tariqati asoschisi Najmuddin Kubro va boshqa shayxlarni zikr etdi².

Asosiy qism

“Nasoyim ul-Muhabbat” Alisher Navoiy tomonidan yozilgan yirik tazkira asar hisoblanadi. “Nasoyim ul-muhabbat” Shayx Uvays Qoraniydan tortib Bibichai Munajjimagacha bo‘lgan 770 ta tasavvuf vakillari zikrini o‘z ichiga oladi.

Asarda zikri kelgan shayxlardan biri hurufiylik tariqatining mashhur vakili va yetuk namoyondasi Imomiddin Nasimi hisoblanadi. Imomiddin Nasimi borasida qardosh xalq bo‘lmish Ozarbayjonda va Turkiyada keng ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsada bizda bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar juda kam.

Alisher Navoiy Imomiddin Nasimiyni “Nasoyim ul-Muhabbat”ning 732-o‘rnida zikr qiladi va quyidagilarni yozadi:

Iraq va Rum tarafidagi mulkdin erkandur. Rumiy va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmida hakoyiq va maorif bag‘oyat ko‘p mundarijdur. Mazkur bo‘lg‘on mulk ahlig‘a aning she’ri muqobalasida hamonoki she’r yo‘qdur. Hamono taqlid ahli ani mazhabida qusur tuhmatig‘a muttaham qilib, shahid qildilar. Mashhur mundoqdurki, terisin so‘yar hukm bo‘lubdur³.

Ma’lum bo‘ladiki, Nasimi she’riyatining asosiy mavzusida haqiqat va ma’rifat tilga olingan. Shu vaqtga qadar bu jahbada uning muqobiliga chiga oladigan inson topilmagan. O‘z davrida muqallidlar Nasimi tutgan mazhab (yo‘l)ni noto‘g‘ri sanab uni shahid qildilar. Qanday qatl qilinganligi borasida turli ixtiloflar bo‘lsada, Navoiy mashhurrog‘i sifatida uning terisini shilib olishganini bayon qiladi. Xususan, Nasimi terisining shilinishi haqida Rustam Jabbor o‘z maqolasida quyidagilarni yozadi:

Nasimi Halabda Juma namozini o‘qish uchun masjidga kirganida uning kovushi ichiga “Yosin” surasi bitilgan bir varaq qog‘ozni solib qo‘yishadi va sultonga “shoirning Qur’onni oyoqosti qilib yurgani” haqida xabar yetkazishadi. Sulton shoirni qayerda bo‘lmasin oyog‘ini yerga tekkizmay olib kelishni amr qiladi. Ko‘p o‘tmay Nasimiyni sulton huzuriga olib kirishadi.

– Mavlono, kovushi ichiga “Yosin”ni solib yurgan kimsaga qay jazoni ma’qul ko‘rardingiz, – deb so‘raydi Muayyad shoirdan.

– Bunday mal’unning terisini shilmoq lozim, valine’mat, – deydi Nasimi hech narsani tushunmay.

¹ [Alisher navoiyning nasriy asarlari. \(buxdu.uz\)](#)

² Bahromjon o‘g‘li, O. A. (2023, June). ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFİY QARASHLARIDA AHMAD YASSAVIYGA BO‘LGAN MUNOSABAT. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 2, No. 6, pp. 244-247).

³ [Microsoft Word - navoiy_nasoyimul-muhabbat_latin_ziyouz_com.doc \(namdu.uz\)](#)

Shu zahoti sultonning amri bilan shoirning kovushini yechib ko‘radilar. Oyat bitilgan qog‘ozni ko‘rib, Nasimiy qanchalik ustalik bilan qo‘lga tushirilganini anglaydi. Biroq, sultonning oyog‘iga yiqilib, tavba-tazarru qilish, bu fitnani tekshirib ko‘rishni iltimos qilish o‘rniga boshini tik tutib taqdirga tan beradi.

– Hukmdorim, boyagi gapim gap. Jallodlarga aytинг, mening terimni shilib olsinlar.

Nasimiyning qatl etilishi bilan bog‘liq qator rivoyat va afsonalar bizgacha yetib kelgan. Ulardan birida aytishicha, Nasimiy terisini shilayotganlarida ham, Mansur Xalloj kabi “Anal-haq”, deya xitob qiladi. Shunda uni tomosha qilayotgan raqiblari:

– Ey nodon, o‘zing-ku, qoningga belanib yotibsan. Yana qanaqasiga xudolik da’vo qilasan? – deya istehzo qiladilar.

– O‘zing nodonsan, – deydi shoir boshini mag‘rur tutib. – Men abadiyat ufqiga bosh qo‘yayotgan Quyoshman. Hech ko‘rganmisan, Quyosh ham botayotgan chog‘ida mendek qizaradi⁴.

Alisher Navoiy yakunda quyidagilarni keltiradi:

Ul holatda bu she’rni debdurki,

n a z m:

Qibladur yuzung nigor qoshlaring mehroblar,

Surating mus’haf vale xol-u xating e’roblar.

va bu she’rning taxallusi ushbu muddaog‘a doldurkim,

n a z m:

Ey, Nasimiy, chun tuyassar bo‘ldi iqboli visol,

Qo‘y, teringni so‘ysa so‘ysun bu palid qassoblar⁵.

Nasimiy so‘nggi daqiqada ham o‘zining yo‘lidan qaytmadi va o‘z maslagida qat’iy turdi. Navoiydek zotning Nasimiy va uning sulukiga qilgan e’tiborining o‘zi ham Nasimiy mazhabini yuksak ekanligiga dalolat qiladi.

Xulosa

Alisher Navoiy o‘z asarlarida ulug‘ shayxlarni alohida ezozladi, xususan, Nasimiyni ham. “Nasoyim ul-Muhabbat”da Imomiddin Nasimiyni zikr qilish uning yaxlit portretini gavdalantiradi. Shu bilan birga Navoiy Nasimiya o‘z hurmatini va uning ijodiy faoliyatiga ham yuqori baho berdi. Bu orqali Navoiy Nasimiyni o‘rganish uchun namuna ham taqdim qildi.

⁴ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/nasimiy-ulimiga-fatvo-bergan-ruhoniyl-talvasasi-yoxud-manda-sigar-ikki-jahon>

⁵ Microsoft Word - navoiy_nasoyimul-muhabbat_latin_ziyouz_com.doc (namdu.uz)



Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Microsoft Word - navoiy_nasoyimul-muhabbat_latin_ziyouz_com.doc (namdu.uz)
2. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/nasimiyl-ulimiga-fatvo-bergan-ruhoniy-talvasasi-yoxud-manda-sigar-ikki-jahon>
3. Bahromjon o‘g‘li, O. A. (2023, June). ALISHER NAVOIYNING TASAVVUFİY QARASHLARIDA AHMAD YASSAVIYGA BO‘LGAN MUNOSABAT. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 2, No. 6, pp. 244-247).
4. Alisher navoiyning nasriy asarlari. (buxdu.uz)

